

## **Talabalarning istiqbolli kelajagi o'z qo'lida**

Xalqaro hamkorlik bo'yicha prorektor A.Salohiddinov bilan institutning barcha fakultetlarning 1-bosqich iqtidorli talabalari ishtirokida ijodiy uchrashuv bo'lib o'tdi. Uchrashuv davomida har bir talabaning o'z sohasining yetuk mutaxassisini va yetakchisi bo'lishi uchun zaruriy shartlar va unga erishish yo'llari to'g'risida atroflicha fikr almashildi. Har tomonlama yetuk mutaxassis o'z sohasining chuqur egallashi va xorij tillardan birini o'zlashtirish zaruriyati misollar bilan bilan tushuntirib berildi. Yetuk mutaxassis bo'lish uchun esa albatta, bugundan boshlab rejali ishlarni amalga oshirish kerakligi uqtirildi. Uchrashuvda shuningdek, USchool va Oasis FES o'quv markazlarining rahbarlari ham ishtirok etishdi. O'quv markazlaridagi kurslarning o'ziga xos xususiyatlari va shartlari to'g'risida ma'lumotlar taqdim etildi. USchool o'quv markazi rahbari Farxod Shukurov tomonidan uyushtirilgan lotoreyada 3 nafar talaba ushbu o'quv markazida bepul bir oylik kursida o'qish imkoniyatini qo'lga kiritdi. Iqtidorli talabalar xalqaro loyihibar, grantlar va ingliz tilini o'rganish bo'yicha savollarga to'liq ma'lumotlar olishdi.



TIQXMMI matbuot xizmati